

Ona yurti - oltin beshiging

TONG Yulduzi

№44 (66377)
2002 yil
28 oktabr,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan.

Ona tilim - jonu dilim

O'zbek tili tarixiga nazar tashlasak, uning qanchalik buyuk, qudratli ekanligiga yana bir bor

kuylagani ham bejiz emas. Uning «Boburnoma»sini o'qib, o'zbek tilining boyligi, go'zalligi, jilosiga

TIL - QALB KO'ZGUSI

amin bo'lamiz. She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy

yana bir bor amin bo'lasan kishi. Biz uchun jondek aziz, boldek



Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
118 - maktabning 5-sinf o'quvchisi Dilrabo
DO'STQOBILOVA ushbu rasmini til bayramiga

bobomizning sa'y-harakatlari tufayli o'z mavqei qayta tiklab, «o'zbek tili» sifatida maydonga kelgan tilimiz asrlar davomida sayqallanib, boyib, bizning ardoqli ona tilimizga aylandi. Navoiy bobomizning turkiy tildagi g'azallari shu qadar jozibadorki, ularni qancha ko'p mutolaa qilsak, shuncha ko'p o'ziga tortaveradi.

Vatanidan ayro yashashga majbur bo'lgan Mirzo Bobur ona yurti ishqini o'z ona tilida

yoqimli bo'lgan o'zbek tilimizga Davlat tili maqomi berilganiga roppa-rosa 13 yil bo'ldi. Mazkur sanaga bag'ishlangan bayram tantanalari yurtimiz bo'ylab hamon davom etmoqda. Bu kunni qancha bayram qilsak, shuncha kam. Chunki milliy iftihorimiz, ajdodlarimizdan meros ona tilimizni sofligicha saqlab, avlodlarimizga yetkazadiganlar - biz yoshlarmiz axir!

Dilafro'z
XUDOYBERDIYEVA.

«ZIRAPCHA»DA

BOSILGANDAN SO'NG

Assalomu alaykum Umida opa, qadrli «Tong yulduzi». Gazetangizning «Zirapcha» sahifasida ko'chalarimizning asfaltlanmagani haqidagi tanqidiy maqolam chop etilgandi. Gazetani olib, hokimiyatga bordim. Ammo unga hech kim e'tibor bermadi.

Sahifalaringizda e'lon qilinayotgan

Muharrirga maktub aksariyat tanqidiy maqolalarni kuzatib boraman.

Maqola mualliflari navbatdagi sonlaringizda muammolari hal bo'lgani haqida yozishadi, buning uchun sizga minnatdorchilik ham bildirishadi. Nahotki mening maqolam bee'tibor bir chetda qolib ketaversa...

Men qanday yo'l tutay? Maqolamni boshqa mutasaddi amakilarga ko'rsataymi yoki foydasi yo'qmikin? Yolg'iz umidim sizdan, maslahat bering!


Oynisa ESHMURODOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh shahri,
Gagarin ko'chasi.

TAHRIRIYATDAN: Darhaqiqat, gazetamizning eng faol muxbirlaridan biri bo'lmish Oynisaning ko'chalari asfaltlanmagani haqidagi tanqidiy maqolasi gazetamizda chop etilgandi. Biz maqolada keltirilgan faktlar o'z tasdig'ini topib, muammo ijobiy hal qilindi, deya umid qilgandik. Oynisaning ushbu maktubi umidlarimizni puchga chiqardi. Qizchaning savoliga qanday javob berishni bilolmayapmiz. Balki Oqtosh shahar hokimiyatidagi mutasaddi amakilar uning bu savollariga jo'yali javob qaytarishar?! Ularning javobini biz ham kutib qolamiz va bu mavzuga yana qaytamiz.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 10 yilligi oldidan

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdir.

Oila. 66- modda.



1992 yil 8 dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashining XI sessiyasida mustaqil O'zbekiston davlatining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Shu kun - 8 dekabr

bo'lganligini aks ettiradi.

Yaqin kunlarda diyorumiz, butun xalqimiz asosiy qonunimiz qabul qilinganligining 10 yilligini katta tantana bilan bayram qiladi.

Joylarda ushbu kunni munosib kutib

huquqiy ta'lim va tarbiyani yanada namunali yo'lga qo'yishdir.

Ko'rik-tanlovning navbatdagi viloyat bosqichi Jizzax viloyatida bo'lib o'tdi.

Jizzaxlik bilimdon bolalar

BURCH ISTAKDAN USTUN

umumxalq bayrami - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb tan olindi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibida birinchilardan bo'lib o'z Konstitutsiyasiga ega bo'ldi. Bu esa dunyo xaritasida buyuk voqea, yangi demokratik davlat, ya'ni O'zbekiston Respublikasi paydo

olish uchun tadbirlar o'tkazilyapti, ko'rik-tanlovlar uyushtirilyapti.

Mana shunday ko'rik-tanlovlardan biri, Respublika Xalq ta'limi vazirligi, Adliya vazirligi, Respublika «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi, Badiiy Akademiyasi hamkorligida maktab o'quvchilari o'rtasida bo'lib o'tyapti.


Bundan maqsad, avvalo Konstitutsiyamizning asl mohiyatini bolalarga chuqur o'rgatish, bu bilan

«Konstitutsiyamiz - baxtimiz poydevori» shiori ostida o'zaro bellashdilar. Konstitutsiyamizning mazmun va mohiyatini ifodalovchi eng yaxshi rasmlar, plakatlar, insho va bayonlarini hay'at a'zolariga taqdim etdilar. Barcha ishtirokchi o'quvchilarning ishlari yaxshi baholandi. Biroq, ko'rik-tanlov o'z nomi bilan tanlov-da! Unda g'oliblar aniqlanishi shart. Chunki ularni Respublika bosqichi kutmoqda.

Bayonlar yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rin - Jizzax tumanidagi 2 - maktab o'quvchisi Go'zal Azamatovaga berildi.

Ikkinchi o'rin - Zomin tumanidagi 51 - maktab o'quvchisi O'g'iloy Donitovaga, uchinchi o'rin esa Zarbdor tumanidagi iqtidorli bolalar litseyi o'quvchisi Nigora Azamatovaga nasib etdi.

Insholar yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rin - Zarbdor tumanidagi 6 - maktab o'quvchisi Dilnoza Rashidovaga, ikkinchi o'rin - Mirzacho'l shahridagi 13 - maktab o'quvchisi Roza O'rmonovaga va



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radi.

108-modda.

uchinchi o'rin - Jizzax shahridagi 2 - maktab o'quvchisi Nodira Bozorovaga berildi.


Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.
42- modda.

Uchinchi yo'nalish - tasviriy san'at bo'yicha birinchi o'rin - Do'stlik tumanidagi


o'ringa va Yangiobod tumanidagi 1 - maktab jamoasi uchinchi o'ringa munosib deb topildi.



O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

76-modda.

12 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi Xasan Ortiqovga, ikkinchi o'rin shu tumandagi 14 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi Ruslan Jalilovga va uchinchi o'rin - Paxtakor tumanidagi 2 - maktabning 6-sinf o'quvchisi Fotima Qosimovaga berildi.



O'zbekiston Konstitutsiyasi-hayotimizning asosiy qonunini yaxshi bilish, uni chuqur idrok etish va albatta unga amal qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Burchga sodiqlik esa Vatanga sodiqlik demak.

Ushbu ko'rik-tanlov bahona o'quvchilar ko'p izlandilar, o'qidilar, o'rgandilar. Huquqiy bilimlarini yanada mustahkamladilar. Zero, qonun-qoidani, o'z huquqini mukammal bilgan inson, jamiyat oldidagi burchini ham yaxshi his qila olishini tushunib yetadi.

Feruza SOYIBJON qizi.

Sahifani ko'rik-tanlov g'oliblarining chizgan rasmlari bilan bezadik.

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Mulkdor odamning jamiyat ichida, xalq orasida faqat boyligi bilan emas, balki yuksak ma'naviy fazilatlari bilan ham ajralib turishi zarurligi, shaxsiy va oilaviy farovonlikka erishish imkoniyati har kimning o'z qo'lida degan hayot haqiqatini zamonaviy dunyoqarash sifatida shakllantiradi. «Har bir fuqaroning farovonligi— butun jamiyatning farovonligidir» g'oyasini ilgari suradi.

5. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi— ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasida ozodlik tushunchasining ustuvor va yetakchi o'rinda turishi Vatan mustaqilligi barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi.

6. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi va o'zining ma'no-mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

(Davomi bor.)

QIZLAR TEGIR MOVI

Teleko'rsatuvlar orasida turli mavzulardagi ko'rik-tanlovlar, o'yinlar, musobaqalar ko'payib borayotgani va ularda o'quvchilar ham ishtirok etayotganlari quvonarli holdir.

Yaqinda shunday musobaqalardan biri «Zakovat» teleo'yinida Yunusobod



SEVINCHIM BIR DUWO

Maktabimizda turli xil olimpiadalar, ko'rik tanlovlar va sport musobaqalari boshlanib ketdi. Yaqinda «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofotiga nomzodlar tanlovining birinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda men ham ishtirok etib, birinchi o'rinni qo'lga kiritdim. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlanganimda juda ham sevinib ketdim. Endi tuman miqyosidagi ikkinchi bosqichda ishtirok etaman.

*Umida ASHUROVA,
Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani, Talimarjon shahridagi Ahmad Yassaviy nomli maktab o'quvchisi.*

ISHONCHNI OQLASHDI



tumanidagi Nuriddin Nosirov nomli 273 - maktabning 6-7-sinf o'quvchilari Yulduzxon Yo'ldosheva, Umidjon Almurodov, Dilnoza Qosimovalar ham ishtirok etishdi. Ular teletomoshabinlar tomonidan berilgan savollarga zukkolik bilan aniq javob berib, g'alabani qo'lga kiritdilar va ustozlari, do'stlari ishonchini oqladilar.

Men bu zukko opa-akalarimni g'oliblik bilan chin dildan qutlayman. Bundan keyin ham bellashuvlarda, musobaqalarda qatnashib, muvaffaqiyatlarga erishishlariga tilakdoshman.

*Munisa UBAYDULLAYEVA,
Yunusobod tumanidagi 97 - maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi.*

BO'SH VAQTINGIZ QANDAY O'TADI?

Assalomu alaykum «Tong yulduzi» gazetasi! Men sizlarga Namangan tumanidan maktub yo'llayapman.

Maktabda yaxshi o'qiyman. Bo'sh vaqlarimda turli badiiy kitoblarni o'qishni yaxshi ko'raman. She'riyat jonu dilim. O'zim ham ba'zan she'r yozib turaman.

Bundan tashqari, tumandagi musiqa maktabining raqs to'garagiga qatnashaman. U yerda raqsning nozik sirlarini o'rganishga harakat qilyapman.

Menimcha, har bir o'quvchi biron bir to'garakka a'zo bo'lishi kerak. Shunda bo'sh vaqlari unumli va mazmunli o'tadi. Aziz tengdoshlar, siz qaysi to'garakka a'zo bo'lgansiz? Bo'sh vaqtingiz qanday o'tadi?

*Shohista ERMATOVA,
Namangan viloyati, Namangan tumanidagi Alisher Navoiy nomli 21- maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi.*

Go'zallik - qanday ajoyib tuyg'u. Go'zal mavjudotni ko'rgan kishining dili zavqlanadi, ilhomi keladi.

Gul ochilishi, kun botishi, moviy samoga bo'y cho'zib turgan haybatli tog'lar... Bularning bari go'zallik.

Men kun botishini kuzatishni yoqtiraman.

GO-ZALLIK

Juda ajoyib manzara. Asta-sekin musaffo osmon qizg'ish tusga kirib boradi. Kun bo'yi nur sochgan quyosh asta pastlab, tog'larning ortiga berkinib, orom oladi. Uning o'rniga o'z chiroyini ko'z-ko'z qilib, oymoma ohista bosh ko'taradi. Uning atrofida esa yulduzchalar charaqlab turadi. Eh, qanday ajoyib bu go'zallik!

Kim bilsin, go'zallik bo'lmaganda inson nimadan hayratlangan bo'lar edi?

*Gulyuz UMAROVA,
Poytaxtimizdagi 17- maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.*

VATANIMIZNING

Keyingi yillarda yosh, umidli san'at ixlosmandlariga bo'lgan e'tiborning ortib borayotganini hammamiz yaxshi bilamiz. Ezgulikka yo'g'rilgan bu an'ana bu yil ham davom ettirildi. Yaqinda «O'zko'rgazmasavdo» binosida «Umid yulduzlari» festivalining birinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Festivalda musiqaning sehrli olamiga endigina kirib

“UMID YULDUZLARI”

kelayotgan yosh, iste'dodli yoshlar taqdirlandilar. Kechani Farrux Zokirov va Kamolaxonlar olib borganlari unga yanada fayz kiritdi. Sahna bezaklari ham, festival ham a'lo darajada rejalashtirilgan ekan. Bu esa, biz - yangilikka, rang-baranglikka intiluvchan yoshlarning ko'nglimizni ko'tarib yubordi. El sevgan san'atkorlar Avazbek Olimov, Sevara Nazarxon, Sardor Eshmuhammedovlar va «A'lo», «Diyor», «Shod» guruhlarining, ayniqsa, «Aladdin» shou-dastasi va Dima Tenning chiqishlari barchamizga olam-olam quvonch baxsh etdi. Biz a'lo o'qishimiz, namunali xulqimiz uchun festivalga taklif qilingandik. Bunday festivallarning ko'plab o'tkazilishi bizni yangi muvaffaqiyatlar sari ruhlantiradi, deb o'ylayman.

Kamola UBAYEVA,
Poytaxtimizdagi 249 - maktabning
9- «V» sinf o'quvchisi.

Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyida har yilgi an'anaga ko'ra oktabr oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi va turli viloyatlardan kelgan yosh ijodkor o'quvchilar ishtirokida «Nafosat» gurungi o'tkaziladi. Gurung ishtirokchilari Normurod Narzullayev, Ikrom Otamurod, Sirojiddin Sayid, Aziz Sayid kabi turli

“NAFOSAT” GURUNGI

avlod vakillariga mansub shoiru yozuvchilar bilan uchrashdilar va ulardan oq fотиha oldilar. Poytaxtimiz bo'ylab uyushtirilgan sayohat yosh qalamkashlarga juda yoqdi. Litsey o'quvchilari bilan gurung ishtirokchilar orasida o'tkazilgan mushoiralar, tanishuvlar va litsey o'quvchilarining badiiy chiqishlari ko'ngillarga zavq-shavq baxsh etib, xotiralarida o'chmas iz qoldirdi.

«Nafosat» gurungi ishtirokchilarining sara mashqlaridan jamlab, shoir Ikrom Otamurod boshchiligida «Istiqlol g'unchalari» kitobining 3 to'plamini chop etish rejalashtirildi.

«Nafosat» gurunining mazkur yildagisi ham ijodkor yoshlarning safi yanada kengayishiga munosib hissa bo'lib qo'shildi, deya umid qilamiz.

Rustam O'TAMUROD.

MUSTAQILLIK ORZUMIZ EDI

Obod mahallasiga kirib kelsangiz, chamanzorga tushib qolganday bo'lasiz. Har bir hovlining oldida atirgullar ochilib turadi, ishkohlardan mo'ralab turgan oltinrang uzumlarni ko'rsangiz, dilingiz quvnab ketadi. Biz ham shu ko'rkam mahallada yashaymiz. Oilamiz boshlig'i - bobojonim Mirsodiq bobo 80 yoshni qoralab qolgan bo'lsalarda, ularga hech shu yoshni bermaysiz. O'zlari tetik, ko'zlari ravshan, fikrlari tiyrak, dilkash va mehribon insonlar. Dunyoda bor rivoyatu hikoyatlarni biladilar. Biz nabiralariga hikmatlardan, hadislardan, hayotlarida bo'lib o'tgan voqealardan so'zlab beradilar. Nafaqat men, bobojonimni hamma o'rtoqlarim ham yaxshi ko'rishadi. Bobom ham cho'ntaklaridagi shirinliklarini ularga ulashib yuradilar. Bobom bilan

suhbatlashsangiz, zerikmaysiz.

Ha, qarisi bor uyning parisi bor, deydilar. Xonadonimizdan mehmon arimaydi.

Bobojonim sakkiz nafar farzandning

hecham mehribon otasi, 25 nabira va 3 evaraning sevimli buvasidirlar. Ulardan «Nega sira qarimaysiz?» - deb so'rasam, hayotni, mehnatni yaxshi ko'raman. Tozalik va tartibga rioya qilsangiz, siz ham doimo bardam bo'lasiz, deydilar.

Bobojonim bilan ko'pincha go'zal Toshkentimizni aylanib kelamiz.

-Ha, O'zbekistonimiz juda ham obod bo'lib ketyapti. Mustaqillikni bir umr orzu qilib keldik. Mana shu kunlarni ko'rish ham nasib etdi. Hali sizlar kelajakda bundan-da yaxshi kunlarni ko'rasiz, -deydilar. Men bobojonim bilan faxrlanaman. U kishiga uzoq umr, sihat-salomatlik tilayman.

Mirzohid MIRFAYZIYEV,
Yunusobod tumanidagi
239 - maktabning 5-«V» sinf
o'quvchisi.



Mehribon, mehri bor muallim

O'qituvchim-mehribon ustoz,
Hech tuganmas sizga
hurmatim.

Sizga sharaf, sizga bo'lsin shon,
Sizga bo'lsin chin e'tiqodim.

Qorong'u tunni yorituvchi
to'lin oyni hech
kuzatganmisiz?

Uning
atrofidagi
katta-yu
kichik
yulduzlarni-chi? To'lin
oy menga ilk
o'qituvchimni,
yulduzlar esa sho'xu-
-shodon
sinf doshlarimni
eslatadi. Darhaqiqat,
maktab ostonasiga ilk
qadam tashlagan
bolakay mehribon

ustozining qo'lidan tutib, bilimlar
dunyosi-yorug'lik olamiga yo'l oladi.
Hamma narsaga hayrat bilan
boquvchi bolakay yo'lini to'lin oy nuri

- ilk ustozining saboqlari yoritadi.
Men barcha ustozlarimni birdek
yaxshi ko'raman. Biroq, ilk bora
qo'limga qog'oz- qalam ushlatgan
birinchi ustozimni hammadan
azizroq, deb bilaman.

O'zim ham
ulardek
mehribon,
mehri
bor
muallim
bo'lsam deyman.

**Madina
ISHMURODOVA,**
**Samarqand
viloyati, Oqtosh
shahridagi
10- maktab
o'quvchisi.**



Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Luiza O'RINBOYEVA o'quvchilari
davrasida.

Bu yil Toshkent Davlat Agrar Universiteti qoshidagi Qibray
akademik litseyiga o'qishga kirdim. Bundan juda xursandman.

Maktabimizdan farqli o'laroq bu yerda o'qish ham, tashkiliy
ishlarda ishtirok etish ham zimmamizga ancha mas'uliyat yuklashini
angladim.

O'qituvchilar bayrami arafasida qasamyod qilish
marosimini o'tkazdik. Tadbirimiz
o'zgacha o'tdi.

TADBIRIMIZ TADBIRLARGA ULANDI

Bayramga
ustozlarimiz, ota-onalarimiz tashrif
buyurishdi. Har bir tadbirimizda qatnashishga va'da
berishdi.

Yaqinda o'zbek tiliga Davlat maqomi berilgan kunni ham keng
nishonladik. Biz, 1- bosqich o'quvchilari bitiruvchi aka-
opalarimizdan ko'ra faolroq bo'lishga harakat qildik. Devoriy
gazetalar tayyorladik, tilimizni madh etuvchi she'rlar yod oldik,
qo'shiqlarimiz raqslarga ulanib ketdi. Kichik sahna ko'rinishini
namoyish etdik.

Ushbu tadbirimiz barchaga birdek ma'qul bo'ldi.

Nizomiddin MO'MINOV,
Qibray Akademik litseyi o'quvchisi.

O'YINQAROQ BOLALARGA SABOQ

Mahallamizga yaqinroq joydan Sirdaryo
suvi oqib o'tadi. Daryo o'z nomi bilan sirli
daryo. U juda ham vahimali ko'rinadi.
Shunday bo'lsa-da, biz bundan bir necha
yil oldin qo'rquv nimaligini bilmay daryo
bo'yiga o'ynagani borardik. Gohida o'yin
bilan ovora bo'lib, kech bo'lganini ham
sezmay qolardik. Ota-onamizning bir
necha bor bergan dakkilari ham kor
qilmasdi.

Shunday kunlarning birida mahallamizda
«falonchining nabirasi suvga tushib
ketibdi» degan gap tarqaldi. Uning jasadini
uch kundan so'ng topishdi. Shundan so'ng
ehtiyot bo'ladigan bo'ldik. Bu voqea biz
- o'yinqaroq bolalarga saboq bo'lgan edi.

Dilnoza BOTIROVA,
**Toshkent Pedagogika kolleji
talabasi.**

Mehmonxona

Mustaqil diyorumizda zukko, bilimli, fidoyi yoshlarimiz soni tobora ortib bormoqda. Bu esa istiqbolimizning yanada nurafshon bo'lishida katta

uchun muxbirning savollariga javob bergunimcha kasseta ham tugab qolibdi. Shundan keyin, radioga taklif qilishdi.

o'qib, sinf sardori bo'lganman. Ona tili, adabiyot va rus tili fanlaridan olimpiadalarda ishtirok etgandim. Lekin, keyinchalik o'yinqaroqlik qilib,

YOSHLAR INTILISHIDA BO'LSA...

omil hisoblanadi.

Bugungi suhbatdoshimiz ham ana shunday intiluvchan yoshlardan biri Davron FAYZIYEVdir. Uni sport ishqibozlari juda yaxshi tanishadi. Yunusobod tumanidagi 70 - o'rta maktabni a'lo baholarga bitirib, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU ning jurnalistika fakultetida tahsil olayotgan Davron «Davron» informatsion dasturining sport ko'rsatuvini olib boradi.

- Davron, jurnalistikaga kirib kelishingiz haqida gapirib bersangiz va nima uchun aynan sport sohasini tanladingiz?

- 17 yoshimgacha jurnalist bo'lishimni xayolimga ham keltirmagan edim. Yoshligimdan sportchi yoki harbiy bo'laman, deb yurardim. Aktyorlikka ham qiziqishim katta edi. 11 - sinfda o'qib yurgan kezlirim maktabimizga «O'zbekiston» radiosidan muxbir kelib, o'quvchilardan sport haqida intervyu oldi. Maktab direktorimiz Ma'rifat opa, bizning sinfimizda sportga qiziqadigan va u bilan shug'ullanadigan bolalar borligini inobatga olib, muxbirga aynan bizni tavsiya qildilar. Jahonda, mamlakatimizda o'tkazilayotgan barcha musobaqalar, futbol uchrashuvlari, chempionatlarni kuzatib borganim

Ish faoliyatimni «Kelajak tongi» dasturiga sport sahifasi tayyorlashdan

baholarimni pasaytirib yubordim.

Maktabimizda sport juda yaxshi yo'lga qo'yilgandi. Maktabdagi sinfdoshlarim Sherzod, Rashid, Izzatxo'ja, Xumoyun hamda Botirlar mening eng yaqin do'stlarim. «Menga do'stingni ko'rsat, kimligingni aytib beraman» deganlaridek, do'stlarimning dunyoqarashi, qiziqishlari va hayotga yondoshishi menga ham singib ketgan va balki faoliyatimda ham ularning ba'zi maslahatlariga amal qilayotgandirman.

- Kelajakda ham shu soha mutaxassisi bo'lib qolmoqchimisiz?

- Umuman juda ko'p sohalarga qiziqaman. Tadbirkorlik meni juda qiziqtiradi. Imkon bo'lsa, ko'p kasblarni o'zlashtirmoqchiman. Lekin yaqin yillarda emas. Chunki hozir universitetda tahsil olayapman va ba'zida hatto ishga ham vaqtda kela olmayapman. Yoki aksincha, ko'rsatuvimni tayyorlab, ma'ruza va darslarda ishtirok etolmay qolyapman. O'qishni bitirgach, ikkinchi ixtisoslik bo'yicha ham o'qish niyatim yo'q emas.

- «Tong yulduzi» gazetasining o'quvchilariga, a shaddiy muxlislaringiz bo'lmish o'g'il bolalarga tilaklaringiz.

- Eng avvalo har bir bolaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'lsin va unga yetishish yo'lida tinmay izlansin. O'g'il bolalar qaysi sohani tanlashmasin, sport bilan shug'ullanishlarini xohlardim. «Tong yulduzi» gazetasi va uning muxlislariga omad tilayman.

Shahlo MUTALOVA
suhbatlashdi.



boshladim. Keyinchalik «Yoshlar» telekanalida sport ancha batafsil yoritilishini inobatga olib, omadimni sinab ko'rishga qaror qildim. Bosh muharrir Furqat aka Zokirov sportga oid bir - ikki savollar berganlaridan keyin bo'lajak ustozim Davlat aka Turdialiyev bilan tanishtirdilar. Mana shu kungacha, ushbu telekanalda o'z tajribamni orttirib kelmoqdaman.


- Bolaligingiz va bolalikdagi do'stlaringiz haqida ham gapirib bersangiz.

- Bolaligimni eslasam, hayajondan entikib ketaman. Menimcha, har bir inson bolaligini ana shunday kayfiyat bilan eslaydi. Sportdan tashqari eng katta qiziqishim kitob o'qish edi. Ko'chada do'stlarim bilan o'ynab, uyga kirganimdan keyin uxlagunimcha kitob o'qib yotardim. Maktabda 5-sinf gacha faqat «besh» bahoga





Sog' yurak -



1990 yilning kuzida dunyoga kelgan jajigina chaqaloqning yashab ketishiga shifokorlar umid qilishmagan edi. Nurotalik bolalar shifokori

tortdi.

1999 yildan boshlab qator musobaqalarda ishtirok eta boshladi. Gohida g'olib bo'ldi, gohida mag'lublikning achchiq mevasini «tatib» ko'rdi. Lekin har gal mashg'ulotlarni jiddiy olib borish kerakligini tushundi.

Xuddi shu yili Samarqandda bo'lib o'tgan yosh taekvandochilar musobaqasida ikkinchi o'rin sohibi bo'ldi va kumush medal bilan taqdirlandi.

Bu yil Samarada o'tkazilgan yosh taekvandochilar musobaqasida ham

harakat qiladi,- deydi ustoz X Viktor Anatolyevich.

Tohirjon taekvando mashg'ulotlari bilan cheklanmadi. U harbiy ta'lim olishga qaror qildi. Bu yil poytaxtimizdagi Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 225 - maktabning 7-harbiy va sport sinfiga o'qishga kirdi va tezda sinfdoshlari orasida o'z o'rnini topdi.

- Tohirjon sinfimizda eng kichigi hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, u fanlardan faqat a'lo baholar olishga intiladi. Ayniqsa, matematika fanidan. U yaxshi o'rtoq, munosib do'st,- deya

CHINIQQANDAN

KASALLIKLAR QO'RQADI

Sobit aka Omonullayevning engil qo'llari sababmi, yoki hazrat Nurota pirlari qo'llab-quvvatladimi, xullas, chaqaloq - Tohirjon otanasining baxtiga yashab ketdi. (Ilohim umri uzun va mazmunli bo'lsin.)


Tohirjon 1-sinfga borguniga qadar tez-tez betob bo'lib turdi.

Maktabda barcha fanlardan a'lo baholarga o'qish bilan birga, jismoniy tarbiya bilan ham jiddiy shug'ullandi. 1997 yili Sirg'ali tumanidagi 305-ekologiya litseyida tashkil etilgan «Sparta» taekvando klubiga qabul qilindi. Katta murabbiy, oliy toifali hakam X Viktor Anatolyevich rahbarligida sportning taekvando turi bilan jiddiy shug'ullanishga kirishdi.

Tohirjonning tirishqoqligi-yu harakatchanligi, o'z ustida tinimsiz mashq qilishi murabbiyning diqqatini

ishtirok etishga muvaffaq bo'ldi. Garchi o'rin olmagan bo'lsa-da, bir

murabbiyning gaplarini tasdiqlashdi uning sinfdoshlari.



Chiniqqandan kasalliklar qo'rqadi, deyishadi. Bu gapda jon bor ekan. Ayni kunlarda o'z ustida tinimsiz mehnat qilayotgan Tohirjonning betob bo'lishga vaqti yo'q.

Zero, mashaqqatli mehnat hamisha hayajonli va rohatli damlarni yetaklaydi. Bu yo'lda unga omad va sabr-toqat

olam taassurotlar bilan qaytdi.

hamroh bo'lsin, deymiz.

- Tohirjon Xasanov bizning faxrimiz. Undan umidimiz katta. Tohirjonning yaxshi bir odati bor: Bellashuvlarda unga g'oliblik nasib etsa mag'lub bo'lgan musobaqadoshining yoniga borib, «O'rtoq, xafa bo'lma, kelasi safar albatta yutasan», deb uning ko'nglini ko'tarishga

A.ABDULLAJONOV.



tog' yurak


- Karate bilan sakkiz yildan buyon muntazam shug'ullanman. Dastlab shunchaki havasdan boshlangan mashg'ulotim bora-bora aniq maqsadga aylandi. Endi sportdan ketmasam kerak. Boshqa kasbni

o'rgatib kelayotgan trenerim 3-dan qora belbog' sohibi Biloliddin Zayniddinovdirlar. Ulardan ko'p narsalarni o'rgandim.

- *Do'stlik so'zining ma'nosini qanday tushunasiz, do'stlaringiz ko'pdir?*

- Inson har qanday holatda uni tushunadigan yaqin kishisining yonida bo'lishini xohlaydi. Xursandchilik kunlarida ham, og'ir damlarda ham doim yonimda turadigan do'stlarim ko'p bo'lishini istayman. Eng yaqin do'stlarim Radj va Iskandar.

- *Sevimli faningiz qaysi? Har holda sportga aloqador bo'lmasa*



ORZULARI USHALSA DEYMAN...

tanlashni o'ylab ham ko'rmaganman, - deydi biz bilan suhbatda «Bilol» karate klubining a'zosi Tohirbek.

- *Mashg'ulotlar darsingizga xalaqit bermaydimi?*

- Yo'q, aksincha, darslarni o'zlashtirishimga yordam beradi. Chunki sport bilan shug'ullangan odam sal narsaga charchamaydi, kasallik ham, charchoq ham yengolmaydi.

- *Ustozlaringiz haqida ham gapirib bering.*

- Eng avvalo, dadamni ustozim deb hisoblayman. Oilada to'rt farzandmiz. Mendan boshqa hech kim sport sohasini tanlamagan. Dadam yoshliklarida sportning boks turi bilan shug'ullanganlar. Shuning uchunmi, meni karatega bo'lgan qiziqishimni quvvatlaydilar. Mening yutuqlarimdan quvonib, doim ko'nglimni ko'tarib turadilar. O'zlari erisha olmagan yutuqlarga mening erishishimni orzulaydilar. Mening qiyofamda o'z yoshliklarini ko'rsalar kerak-da. Men ham ishonchlarini oqlashga astoydil harakat qilaman...

Yana bir ustozim karate sirlarini menga qunt bilan

Tohirbek Soatov - Akmal Ikromov tumanidagi 116 - maktabning 10-«A» sinfida tahsil oladi. Maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga sportning karate turi bilan ham shug'ullanadi. Rossiyada bo'lib o'tgan musobaqada 1-o'rin, Qozog'istonda o'tkazilgan qator musobaqalarda 1-,2-,3-o'rinlarga sazovor bo'lgan. Sinfdozlari va ustozlarining, qolaversa, maktabining faxriga aylangan Tohirbek 1-dan qora belbog' sohibi.

kerak...

- Nega endi. Aynan sport sohasini tanlaganim uchun ham, jismoniy tarbiya fanini juda yoqtiraman. Futbol o'ynash



eng sevimli mashg'ulotim. Qolgan fanlar ham bir navi-yu lekin shu fandan baholarim doim a'lo.

- *Hayotdagi shioringiz.*

- Tanlagan kasbim doimiy mashaqqatlardan, tinimsiz izlanishlardan iborat ekanini bilaman. Shuning uchun ham shiorim orzu-istaklaringa erishish, maqsadim yo'lidagi barcha qiyinchiliklarga bardosh berish.

- *Orzularingiz bilan ham o'rtoqlashsangiz.*

- Orzularim... Ular juda ko'p. Eng avvalo, bir kun kelib yurtimiz bayrog'ini chet ellarda baland ko'tarishni va turli musobaqalarda doim birinchilikni olishni orzu qilaman. Yana maktabni a'lo baholarga yaxshi nom bilan bitirish...

- *Tengdoshlaringizga tilaklaringiz.*

- Sport bilan oshno bo'lgan har bir tengdoshimga kattadan-katta muvaffaqiyatlar tilab qolaman. Sport sog'likning garovi ekanligini unutmang. Vaqtinizni to'g'ri taqsimlashni o'rganing...

Biz ham Tohirbekka sportda omad, kelajakda o'z orzu-maqsadlariga erishishini tilaymiz. Zero, u kabi qalbi Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatga to'liq yoshlar bor ekan, O'zbekiston kelajagi yorqin bo'lishiga hech bir shubha yo'q.

Ma'suda ABDUQODIR qizi suhbatlashdi.

ARADYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

(Oxiri.

Boshi o'tgan sonlarda.)

«Ishlarim yurishgandan yurishib ketdi, meni mansabdor zotlarni davolatishga chaqira boshlashdi.

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

Hammasi yo'lga tushib ketdi. Birorta bemor mendan boshqa hakimda davolanishni istamay qoldi. Ertalab

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

osuda yillar boshlandi nihoyat. Olim bu kafedrani 37 yil mobaynida boshqardi.

U mashhur botanika bog'ini yaratdi.

Lekin o'simliklardan tezroq o'sgan

shogirdlari uchirma bo'lib,

«botaniklar qiroli» shuhratini

dunyoning turli chekkalariga olib

ketishdi. Turli mamlakatlarning

hukmdorlari uni o'z huzurlariga

ko'plab marta chorlashdi, oltin tog'lar

va'da qilishdi. Ammo u doim salgina

Ana shu kezlarda gerbariy to'plashda alohida jonbozlik ko'rsatgan shogirdlar stol atrofiga, professorning davrasiga qo'shilishga muyassar bo'lar, qolganlari esa tik

Buyuk kishilar olmos yanglig'
noyob va shu qadar serjilodir.

Sharq naqli

turgancha nonushta qilishardi.

Linney miyasiga qon quyulgan daqiqada ham ishlab o'tirgandi. U omon qoldi, ammo asta-sekin bola

BOTANIKLAR QIROLI

soat 4 dan kech oqshomgacha mijozlarimnikiga qatnardim. Ularning uyida tunab qolib, pul ishlardim... Botanikadan ko'nglim qoldi, shu paytgacha to'plagan jamiki kolleksiyalarimni butunlay yo'qotishga minglab marta jazm etdim ham, ammo qo'lim bormadi. Ko'p

o'tmay, flotda katta hakim lavozimini egalladim. Davlat tabaqalari esa Stokgolmda botanikani o'qitishim uchun yiliga yuz dukat maosh tayinlashdi. Ana shunda o'simliklarni yana yaxshi ko'rib qoldim, keyin esa meni besh yil kutgan qaylig'imga uylandim».

To'ydan so'ng, 34 yoshli Linney Upsala Universitetining professori bo'lganida Jan-Jak Russo orzu qilgan



kinoya aralash: «Mabodo biron bir qobiliyatim bo'lgan taqdirda ham burchim uni ona vatanga bag'ishlashga da'vat qiladi», deb javob berar edi.

Linneyning keksaligi osuda kechdi. Yozda u o'z qasrida yashar, talabalarini ergashtirib, yaqin-atrofga botanik ekskursiyalar uyushtirardi. Sayrlardan qaytgach, qasming salqin zalida tvorog va mevalar bilan tamaddi qilishardi.

tabiat bo'la bordi. Xotirasi susaydi, yaqin kishilarini yaxshi taniy olmas, grek va lotin harflarini chalkashtirib yozardi. 1777 yilning dekabr oyida 70 yoshli Linney kutilmaganda chena tayyorlashlarini buyuradi va yolg'iz holda, hech kimga hech nima demay o'z qasriga jo'nab

ketadi. Xavotirga tushgan qarindoshlari uni izlab borib, faqat kechga yaqin topishadi. Olim mehmonxonada gilam ustida trubkasini tutatgancha devor o'choqdagi alangaga tikilib o'tirardi. Uni bir amallab Upsalaga olib kelishadi.

Yana bir necha kundan keyin Karl Linney - Botaniklar qiroli olamdan o'tadi.



Soliq haqida nimalarni bilasiz?

XVII asrda va XVIII asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda keskin iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar yuz berdi. Shayboniylar davlati barham topib, ular hukmronlik qilgan hududda Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. Bu amirlik va xonliklar mustaqil davlat mavqeiga ega bo'lgan feodal tuzumga asoslangan saltanatlar edi.

Buxoro amirligining moliya tizimi asosan yer solig'i va hunarmandlardan undiriladigan yig'imlar negizida shakllangan.

Amirlikda soliq to'lovlarining ro'yxatini tuzish, moliya hisobotini olib borish va tushumlar nazorati devonbegi rahbarligida moliya amaldorlari tomonidan olib borilgan. Amirlik moliya amaldorlari ichida arbob lavozimi juda muhim o'rin tutgan. Arbob to'lov majburiyatlarining bajarilishi, elchilarni kutib olish, inshootlar qurish va shu kabi amirlik manfaatlariga xizmat qiluvchi tashkiliy tadbirlar ustidan nazorat olib boruvchi amaldor hisoblangan.

Buxoro amirligidagi soliqqa tortiladigan yerlar asosan ikki qismga bo'lingan. Birinchisi feodal yer egalari tasarrufidagi yerlar bo'lsa, ikkinchisi dehqon aholiga tegishli xiroj yerlari edi. Amirlikka qaragan xususiy mulk mavqidagi yerlardan yig'iladigan xiroj solig'i xazinaga eng ko'p daromad keltiruvchi manba bo'lgan.

Xiroj solig'i xususiy mulk shaklidagi yerlardan belgilangan miqdorda naqd pul yoki don sifatida undirilgan. Naqd pul bilan undiriladigan soliq xiroj, don sifatida undiriladigan soliq xiroji vazifa tushunchasi bilan yuritilgan.

Soliq to'lovlari har bir yerdan

hosildorlik darajasiga qarab hosilning beshdan, oltidan yoki sakkizdan bir qismi shaklida belgilangan. Yerning hosildorlik darajasi va to'lanadigan soliq hajmi ma'lum miqdordagi yerdan o'rib olingan hosilni sinov tariqasida yanchib, chiqqan sof don miqdoriga qarab belgilangan.

Soliqlarni belgilash va soliq to'lovchilar ro'yxatini tuzish ishlari bilan saroyning amlokdor deb nomlangan amaldori shug'ullangan. Amlokdorlar hosil yetilishiga yaqin

(2500 kv.km.) yerdan yarim pud don yoki shunga teng paxta miqdorida undirilgan. Tuman boshlig'i uchun kafsanin dorug'a, hosildan xiroj o'miga hosil topshirilishini nazorat qiluvchilar uchun mushtoq kabi soliqlar ham mavjud edi.

Dehqonlarga vaqtinchalik egalik qilish huquqi bilan berilgan yerlar, ya'ni amlok (zamani amlok) yerlardan amlok o'lponi undirilgan. O'lpon yig'imi xiroj solig'iga nisbatan yuqoriroq darajada belgilangan. Chunki amlok

solig'ining tarkibiga yerga egalik qilish huquqi, ya'ni yer

haqi qo'shib to'lov belgilangan.

Buxoro amirligida ma'lum tabaqadagi fuqarolarning yerlari imtiyozli, ya'ni yengillashtirilgan tariqada soliqqa tortilgan. Soliq imtiyozlaridan asosan saidlar, xo'jalar va maxsus amir yoki xon yorliqlari bilan taqdirlangan, shuningdek, vaqf yer egalari foydalanishgan. Masalan, said va xo'jalar tasarrufidagi yerlardan hosilning o'ndan bir qismi miqdorida o'lpon undirilgan. Xon yoki amir yorliqlari bilan taqdirlanganlar yoki vaqf yer egalari o'lpon solig'idan butunlay ozod etilgan.

Bog'dorchilik yoki poliz ekinlari bilan shug'ullanuvchi dehqonlar tanob puli deb nomlangan soliq to'lashgan. Tanob puli bog'dorchilik yoki poliz ekinlari bilan band bo'lgan har bir tanob yer uchun ekin va bog'larning turi, ularning hosildorligiga va bozordan uzoq yoki yaqin joydaligiga qarab belgilangan. Bundan tashqari, tabiiy yo'ng'ichqazorlarda chorva mollarini boquvchilar uchun alaf puli sifatida soliq yig'ilgan.

(Davomi bor.)

Sharofiddin RASULOV,
Toshpo'lat MIRZAYEV.

BUXORO AMIRLIGIDA JORIY ETILGAN SOLIQLAR



soliqqa tortiladigan yerlarni tekshiruvdan o'tkazib, olinadigan hosilni chamalab ko'rib, joylardagi faollar ishtirokida qishloqlar bo'yicha soliq to'lovchilarning ro'yxati tuzilgan. Ana shu ro'yxat amlokdor muhri bilan tasdiqlangandan so'ng, soliq majburiyatini belgilovchi hujjat vujudga kelgan.

Buxoro amirligida xiroj to'lovlaridan tashqari, bir qancha boshqa soliqlar ham majburiy ravishda yig'ilgan. Shulardan biri kafsan solig'i edi. Kafsan solig'i amlokdorlar manfaati uchun belgilangan maxsus soliq turi bo'lgan. Kafsan solig'i har 10 tanob

Ilk tarjimam

Aleksandr Gram Bill kelgusida kashfiyotchi bo'lishini xayoliga ham keltirmagandi. U musiqachi, yoki qulog'i og'ir bolalarning muallimi bo'lishni xohlardi.

Aleks maktabda musiqa, adabiyot, shuningdek, lotin va grek tillarini o'rgandi. Uning onasi rassom va musiqashunos edi. Otasi esa taniqli o'qituvchi bo'lib, u «Nutq ko'rinishi» deb nomlangan bir sistema yaratadi. Bu uskuna qulog'i og'ir kishilar uchun gapirishni o'rgatuvchi bir qo'llanma edi. Otasining bunday ishlariga Aleksandr va ikki akasi yordam berishardi...

1863 yilda 16 yoshli Aleksandr Bill Shotlandiyadagi bolalar maktabiga o'qituvchi bo'lib tayinlandi. U bu yerda ishlashni yoqtirar, ammo kar bolalarga dars berishga jur'at etolmasdi.

Aleks tovush qonunlarini bilib olish uchun bu sohadagi barcha kitoblarni o'qib, turli tajribalar o'tkaza boshladi. Bunday ilmiy tadqiqotlar oson bo'lmasa-da, jon kuydirib ishlab, tovush qonunlariga oid tajribalar o'tkazardi.

1868 yil Aleksandr sil kasaliga duchor bo'ldi. Shifokor maslahati

bilan yaxshi iqlimli - Kanadaga ko'chib ketdi. Betob bo'lishiga qaramay, ishini davom ettiravergan Aleksni bir yil

o'tgach, karlar maktabiga ishga taklif etishdi. O'zining shaxsiy maktabini ochgan Aleksandr bor yo'g'i 25 yoshda edi. U tovushni elektr

assistent qilib oldi.

Oradan ikki yil o'tgach, Aleksga ishgor to'kilib ketdi. Boshqa xonada bo'lgan Tom Uotsi bu g'alati tovushni eshitdi. Do'stining tovushi stol



TELEFON IXTIROSI

YOSH MUTARJIMLAR

Maktabimiz «Yil maktabi» tanlovida tuman

miqyosida 1-o'rinni, viloyatda 2-o'rinni qo'lga kiritib, evaziga 700000 so'mlik mukofotga ega bo'ldi. Mukofot puliga rahbarimiz Rahmat aka Sharipov maktab kutubxonasi uchun badiiy kitoblar xarid qildirdilar. Kutubxonachi Rahnamo opamiz bizga doimo beminnat xizmat qiladilar. Lotin yozuvidagi kitoblardan tashqari ingliz tilida chop etilgan badiiy kitobu almanaxlar o'quvchilar qo'lidan tushmay qoldi. Ayrim maktabdoshlarim tarjimalar ham qilishyapti. Ulardan ba'zilarini e'tiboringizga havola qilmoqchiman. Baholash sizdan, aziz tengdoshlarim.

Gulhayo NURATOVA,

6- «A» sinf o'quvchisi.

telegramma bo'ylab yuborish yo'lini qidira boshladi. Uning o'quvchilari esa bu ishni qo'llab-quvvatlash maqsadida mablag' yig'ib berishdi.

Aleks o'ziga elektr mexanizmlari bilan ishlagan yaqin tanishi Tom Uotsini

ustidagi yangi kashf etilgan qurilma - telefondan kelayotgan edi. U gapirar edi:

-Bu yoqqa keling, Mister Uotsi, sizni kutyapman...

Ikki do'st qurilmaning ishlayotganini ko'rib, ishgor haqida butunlay unutishgandi. Shunday qilib, 1915 yil Nyu-Yorkdan San Fransiskoga ulangan ilk telefon tarmog'i ochildi.

O'sha yili 25 yanvarda Tom Uotsi San Fransiskoda, Aleksandr Gram Bill Nyu-Yorkda turib bir-birlarining tovushlarini eshitishga shay bo'lib turishardi.

Nihoyat, o'sha so'zlar yangradi: -Bu yoqqa keling, mister Uotsi, men sizni kutyapman!..

Nargiza IBRAGIMOVA.

Eng, eng, eng...

ALBATROS QUSHI

Qaysi qushning qanotlari eng uzun sanaladi, bilasizlarmi?

Bu qushning nomi Albatros. U dengiz qushi bo'lib, ekvatorning janubidagi dengizlarda yashaydi. Ba'zilarining qanotlari yozilganda 17 futgacha yetgan. Bu kuchli qush atigi bittagina tuxum qo'yadi. Polaponi voyaga yetguniga qadar unga g'amxo'rlik qiladi.

Dilnora TOLIBOYEVA,

«Almanac for girls and boys» kitobidan tayyorlagan.



Tom:

- Qanday savolga biz hech qachon «ha» deb javob bera olmaymiz?

Bill:

- «Sen uxlayapsanmi?» - degan savolga.

XOTIRA

O'qituvchi Kolomb Amerikani kashf qilingani haqidagi tarixni so'zlab, uni shunday deb yakunlabdi:

- Bu voqeaga 500 yildan ko'p bo'ldi.

Shunda bir o'quvchi ajablanib:

- O! Qanday ajoyib xotirangiz bor ekan-a! - debdi.

Marg'uba HAYITOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
49-maktabning 11-sinf o'quvchilari.

Sahifani Behzod IKROMOV tayyorladi.


G'ayrat

Ayni kuz kunlari poyonini ko'z ilg'amas paxta dalalarida hech bo'lganmisiz? Bormagan bo'lsangiz, bir

guvohi bo'lasiz. Xo'jalikda 6000 dan ziyod hasharchi-terimchilar og'irini

qo'lga kiritishdi. 36 - maktabning g'oliblikni qo'lga kiritishida M.Isxoqov, Bobur Qo'rg'onov, Dilshod Do'sanov,

PAXTAZORLAR CHORLAYDI



yengil qilishyapti. Ibratli jihati shundaki, ot-onalariga yaqindan ko'maklashayotgan tumandagi 45 ta maktab o'quvchilari o'zaro musobaqalashib, paxta teryaptilar. Har o'n kunlik yakunida g'oliblar aniqlanib, rag'batlantirilyapti.

Birinchi o'n kunlik yakuniga ko'ra Ergash

Bahrom Nortoyev kabi ilg'or o'quvchilarning hissalariga katta bo'ldi.

O'quvchi-hasharchilar ular uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratib bergan, har besh kunda uzluksiz paxta pulini tarqatib, mazali ovqatlar pishirib bergan jamoa xo'jaligidan, xususan, 5-bo'lim boshlig'i Bahodir aka Abdukarimovdan behad minnatdorlar.

Muxbirimiz **Abduhamid ABDUG'AFFOROV** ana shu hasharchilar davrasida bo'lib, g'oliblarni suratga tushirib qaytdi.

boring. U yerdagi jo'shqin hayotni, bir-birlariga hazil-mutoyiba qilib, qo'shiq kuylab, etak-etak paxta terayotgan terimchi-yu hasharchilarning g'ayrat-shijoatlarini ko'rib, zavqingiz kelib ketadi. Beixtiyor oldingizga etak bog'lab, terimga tushib ketganingizni o'zingiz ham sezmay qolasiz...

Ayni kunlarda Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi «O'zbekiston besh yilligi» tajriba xo'jaligi dalalarida ham xuddi shunday manzaraning

aka Mamajalilov rahbarlik qilayotgan 36 - maktab o'quvchilari birinchi, 40 - maktab o'quvchilari ikkinchi hamda 38 - maktab o'quvchilari uchinchi o'rinni



Bir kuni sinfdoshim Veryovkina Kristina qo'lida allaqanday

gazeta ko'targancha sinfga xursand bo'lib kirib keldi. Sababini so'rasam, yozgan maqolasi «Tong yulduzi»da chop etilibdi. Gazetani qo'lma-qo'l qilib, tomosha qildik. Maqolalarini o'qigimiz keldi-yu o'zbek tilini bilmaganimiz uchun o'qiy olmadik. Shunda mahallamizda yashaydigan Slava ismli o'zbekistonlik yigitni yordamga chaqirdik. U bizga tarjimonlik qildi. So'ngra jannatmakon yurt - O'zbekiston haqida, uning ayni kunlarda g'arq

MEVALARI TIL YORAR



Do'stlik maktublari

pishib yetiladigan shirin-shakar mevalari haqida to'lqinlanib hikoya qilib berdi. Gaplarini eshitib, og'zimizning suvi kelib ketdi. Bizda ham mevalar serob. Lekin uning ayishicha, O'zbekistonning qovuntarvuzlari-yu anjir, anorlariga yetadigani yo'q emish. Qaniydi bir bor bo'lsa ham ana shu mevalari til yorar o'lkada bo'lsam, shu yurt farzandlari bilan do'stlashsam...

Stas **KERNAJITSKIY**,
Magilyov viloyati, Babruysk
tumanidagi
147 - maktabning
5-sinf o'quvchisi.

Bizning to'garak

Aziz bolajonlar, yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan barcha sanalmish yaxshi sizning eng

birini bir sonini kutishingizga yo'q. Jurnalda «Maktabda sinab ko'ra», «Sinfosh - sirdosh», «Tengdoshlaring



sinfoshlar jurnali «Sinfosh» ni bilasiz-a? U sevimli nashrlaringizdan ekanligiga, har intiqlik bilan hech shubha kimlar ishlashi, muhabbat», «O'zingni sirdosh», «Tengdoshlaring

ijodi» kabi biri-biridan qiziqarli sahifalarini kimlar tayyorlashini ham bilasizmi?

«Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'ulotiga jurnalning adabiyot bo'limiga muharrirlik qilayotgan ijodkor opangiz Zahro Xasanova mehmon bo'lib keldilar. Bolalarni qiziqtirgan savollarga javob berib, ular ijodi bilan ham tanishdilar. Jurnalning buguni, ertasi haqida so'zlab berdilar, kelgusi rejalari bilan o'rtoqlashdilar. Bolalarning iltimoslariga ko'ra, o'z she'rlaridan ham o'qib berdilar.



BOLALIK UY...

Kichik qizim Sadoqatning,
O'rtoqlari juda ko'p.
Kelisha gar mehmonga,
Hovlimiz ketar to'lib.

Biri bo'lib muallim,
Qo'g'irchoqqa dars berar.
Biri qo'shiq kuylasa,
Biri shodon raqs etar.

Biri xamir qoradi,
Loydan chunon berilib.
Uch-to'rt mehmon o'tirar,
To'lda, qarang kerilib.
Eh, bolalik naqadar,
Sof, musaffo, beg'ubor.
Xalqim bejiz aytmagan,
Bolalik uy - bu bozor.



KUCHUGIMIZ

Kuchugimiz ko'chada,
Uch kun yo'q bo'lib ketdi.
Hammamiz xavotirda,
Ko'zlar to'rt bo'lib ketdi.
Hovlimiz suv quygandek,
Usiz huvillab qoldi.
Tomdagi ola mushuk,
Yerdan go'sht ovlab toldi.
Kuchukni ko'chalardan,
Hovlilardan izladik.
Bobomning jahli chiqib,
Men, ukamni «tuzladi».
Nihoyat uch kun o'tgach,
Kirib keldi shumshayib.
Ko'zlari mungli edi,
Orqa oyog'i mayib.

Bobom-chi unga qarab,
Bir ho'mrayib qo'ydilar.
«Ko'chada sayoq yurgan,
Tayoq yeydi», - dedilar.

Zahro XASANOVA.



VATAN

Vatanim bor bepoyon,
Onam kabi mehribon.
Oltin sarhadlarga kon,
Vatanim, bo'lg'in omon!
Buyuk zotlarga makon,
Dilbandlarga mehribon.
Asrayman seni har on,
Vatanim, bo'lg'in omon!
Nomingdir O'zbekiston,
Sarboning sergak har on.
Arzir fido qilsak jon,
Vatanim, bo'lg'in omon!


Madina RAHIMOVA,
Toshkent viloyati, Chirchiq
shahridagi 26 - maktabning
8- «A» sinf o'quvchisi.

Samarqand viloyati, Urgut
tumanidan Nargiza JALILOVA
«Vatanimiz manzarasi» shunday
tasvirlabdi.

KUZ

Kech kuzakda daraxtning uchida qolgan,
So'nggi bir yaproq ham tushdi uzilib.
Noxush bu manzara bag'rim ezarkan,
Ko'zimga yosh keldi, ko'nglim buzilib.
Vaqt kelar, mening ham umrim poyoni,
Shu yaproq singari so'lajak albat.
Hozircha g'aflatning mayidan mastman,
Bilmasdan o'sha kun kelar qay soat.

Rohila MAVLONOVA,
Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi
35 - maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.




YURTIM

Yurtim, hur osmonda,
O'zing bir xilol.
Jannat bog'laringda,
Topurman kamol.
Husningni ko'rib,
Barcha qolar lol.
Hamisha shundayin,
Ko'rkam bo'lib qol.

Sadoqat AKOBIROVA,
Toshkent shahar, Yunusobod
tumanidagi
302 - maktabning 9- «G» sinf
o'quvchisi.


TOPISHMOQLAR

Qulog'i bor, dumi bor,
Ba'zan oq, ba'zan rangdor.
Qo'li yo'q, qanoti yo'q,
Ko'kda uchar har bahor.



Og'zi yo'g'u tishi bor,
Boshimizda ishi bor.

Ikki botir qilichlashar.



Qora tovuq qaqillaydi,
Qanotlari shaqillaydi.



*Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Xo'jayli tumanidagi 57 - maktab
o'quvchisi
Nargiza QAYPBERGANOVA
tayyorladi.*

QATRA

To'lin Oy. Har safar oy yuzingga mahliyo bo'lganimda, beixtiyor shirin hislar vujudimni qamrab oladi va ohista entikib qo'yaman. Ko'k gumbaz singari zangori osmonga oltin barkash misol shunday yarashib tushgansanki, sen chiqmagan kechalari osmon ham motam tutgandek, qop-qora kiyinib oladi. Har kecha ustingdan sochilgan yulduz atalmish yoqutlar ham, sen chiqqan kechadagi kabi quv nab nur sochmasliklari balki shundandir.

Senga doim hayrat bilan boqaman. Har safar to'lishgan yuzingga boqib, dilimdagi hech kimga aytolmagan orzularimni aytaveraman, aytaveraman. Sen esa, tong yaqin, degandek zamin uzra asta bosh qo'yasan.

*Xolida LAKBAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyi
o'quvchisi.*

Har bir inson uchun tug'ilib o'sgan yurtidan-da azizroq joy, ota-onasidan-da mehribonroq kishilar bo'lmaydi. Mehriniso uchun ham o'z uyidan azizroq joy yo'q edi. Ularning uyi

Lekin Mehrinisoning o'ksik ko'nglini hech narsa ko'tara olmasdi.

Uy yumushlarining bari jajjigina qizchasining zimmasiga tushib, qiynalib qolganini ko'rgan yaqinlari

yahada vahimaliroq ko'rsatardi. Daraxtlar unga shoxlarini cho'zib, sen yomon, bag'ritosh ayolsan, deyayotgandek tuyulardi. «Men uyda o'tirib shunchalik qo'rqib ketyapman.

o' r m o n
yaqinidagi
qishloqda
joylashgan

VAHIMALI KECHA

(Ertak)

bo'lib, onasi bilan qo'ziqorin va maymunjonlar terib kelishardi.

O'rmondagi turli qushlarning chug'ur-chug'urini tinglab ulg'aydi. Oilada yagona farzand bo'lgani uchun uni yeru ko'kka ishonishmasdi. Mehriniso bundan taltayib ketmadi, aqlli, farosatli qiz bo'lib kamol topardi...

Ana shunday baxtli kunlarning birida, qizning boshiga og'ir musibat tushdi. Endigina o'n yoshga to'lgan

Mehriniso onasidan ayrilib qoldi. Qayerga bormasin, onasining mehribon siymosi ko'z o'ngidan ketmas, qay ishga qo'l urmasin, onasining dono maslahatlariga muhtojlik sezardi. Chunki dunyo murg'ak qalb uchun jumboqlarga to'la edi-da. «Nimaga? Qachon? Qayerda?» kabi savollarga ko'mib tashlaydigan, yuzini yuzlariga bosib erkalanadigan oyijonisi yo'q endi. Mehriniso shularni o'ylab ko'ngli vayron bo'lib ketar, hammadan yashirincha yum-yum yig'lab olardi. Dadasi uning ko'nglini ko'tarish uchun turli-tuman kiyimlar, o'yinchoqlar, shirinliklar olib berardi.

maslahatlashib, unga «yangi ona» olib kelishdi. Avvaliga xushmuomalali, mehribondek bo'lib ko'ringan o'gay ona kunlar o'tib qizchani turtkilay boshladi. Bir kuni dadasi ish bilan boshqa shaharga ketganida Mehrinisoni «Kap-katta qiz bo'lib



qolding, o'z kuningni o'zing ko'r» deya uydan haydab yubordi. Qizcha achchiq-achchiq yig'lab, chiqib ketdi. O'rmon oralab boshi oqqan yoqqa ketaverdi. Bu orada qorong'i tushib, qattiq sovuq turdi. Qizchani battar vahima bosdi. Shu payt o'rmonchilar yashaydigan uyga ko'zi tushib qoldi. Xona huvillab yotardi. Charchagan, holdan toygan qizcha o'sha yerda uxlab qoldi.

Endi gapni qizchani ko'chaga haydab, uyda o'zi yolg'iz qolgan o'gay onadan eshitaylik. Shamol guvillar, mayda-mayda toshchalar deraza oynasiga urilib, shox-shabbalarning qarsillagan ovozi qop-qorong'u tunni

Mehrinisoning holi ne kechayotgan ekan-a?» deb

o'ylardi u. «Agar hozir qizcha uyida bo'lganida ikkimiz qo'rqmay o'tirardik», degan o'y bilan uni topib kelish niyatida tashqariga otildi.


Shamol tinib, yomg'ir shivalab yog'a boshladi. Ayol uzoq yo'l bosib, o'rmonchilarning uychasi oldidan chiqib qoldi. Qorong'u, sovuq xonaga qo'rqa-pisa mo'raladi. Qarasa, Mehriniso g'ujanak bo'lib uxlab yotardi. O'gay ona uni uyg'otib, uyiga olib ketdi. Shalabbo bo'lgan ust-boshlarini almashtirib, issiq choy ichirdi. So'ngra qizchani bag'riga bosib, undan kechirim so'radi:

-Men yolg'izlik azobini bilmagan ekanman. Endi seni hecham xafa qilmayman. Hamma ishlarni o'zim qilaman. Yaqinda dadang keladi. Biz baxtiyor yashaymiz,-deya yuzko'zlaridan o'pa boshladi.

Anchadan buyon onaning issiq bag'rini qo'msagan qizchani ko'ngli to'lib ketdi. Ko'zlaridan shashqator yosh quyildi. Onasining shirin erkashlari, ertaklarini tinglab, huzur qilib uyquga ketdi.

*Shahnoza SAYFUTDINOVA,
Andijon viloyati, Andijon
tumanidagi 25 - o'rta maktabning
7 - sinf o'quvchisi.*

«SHOKOLAD» katakchalarining ichiga Toshkentdagi darvozalardan birining nomi yashiringan.



1. Parranda nomi.
2. Sayyora.
3. Sport buyumi.
4. Ro'zg'or buyumi.
5. Mehnat quroli.
6. Estrada guruhi.
7. Hayvon nomi.


*Tuzuvchi: «Orom» nomli bog'chamaktabning
4- «G» sinf o'quvchisi Shahzoda
RIZAYEVA.*

KROSSVORD

Savollar:

- Bo'yiqa:* 1. Yurtimizdagi suv ombori.
2. Lo'lilar haqidagi «Tabor ko'kka intiladi» filmi qahramoni. 3. Yozuvchi Oybekning asl ismi. 4. «Ashaddiy» ishqiboz. 6. «Risola al-jayb» risolasi muallifi, alloma. 9. Bozor oqsoqoli. 10. Kumushga O'zbek oyim tomonidan berilgan nom.
Eniga: 1. Poytaxtdagi daha. 5. Kristal modda. 7. Uning «juft»i ham «toq»i ham bor. 8. O'n kun tutiladigan ro'za. 9. Qizlarga beriladigan sifat. 11. Egarining «o'rinbosari». 12. Aziz ne'mat. 13. Musiqqa asbobi.

Tuzuvchi: Sherbek YODGOROV.



TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nusxada ofset usulida bosildi.
Korxonaning manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-961
Gazetani
Ma'suda IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75